



## MAHMUDXO'JA BEHBUDIY VA BEHBUDIYA KUTUBXONASI

## O'rozqulov Oybek

O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi

Islomshunoslik fakulteti, Islom tarixi va  
manbashunosligi yo'nalishi 2- bosqich talabasi

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada siz jadidlar otasi hisoblangan Mahmudxo'ja Behbudiylari uning hayoti va faoliyati, jadidchilik g'oyalari va u tomonidan asos solingan "Brhbudiya" kutubxonasi haqida ma'lumot olishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** Mahmudxo'ja Behbudiylari, Samarcand Behbudiya, Baxshitepa, Ahmad Yassaviy, Rozenbax, Andrayev.

Fuqarolik jamiyatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri va uning yetuklik darajasini belgilovchi omil - bu ajdodlardan kelayotgan g'oyaviy meros hisoblanadi. Shunday ekan, bozor iqtisodiyotiga o'tar ekanmiz, milliy-tarixiy turmush tarzimizni, xalqimiz urf-odatlarini, an'analarimizni, kishilarning fikrlash tarzini hisobga olamiz. Ajdodlarimizning g'oyaviy merosini o'rganish va bu borada fuqarolar ongini shakllantirish masalalariga aynan O'zbekistonda alohida e'tibor berildi. Binobarin, fuqarolar dunyoqarashini kengaytirish va milliy g'ururini o'stirishda tarixiy shartsharoitlarni o'rganish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Zero, O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov aytganlaridek, «o'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi». Mahmudxo'ja Behbudiylari, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayev kabi ma'rifatparvar, adolat tarafdori bo'lgan namoyondalar o'sha davrda erkinlik, tenglik, adolat, davlatni boshqarish, hokimiyat masalasida ham o'zlarining ilg'or siyosiy-huquqiy qarashlariga ega bo'lgan allomalar hisoblangan. Shu bilan birga, yuqorida nomi keltirilgan ko'pchilik mutafakkirlarning ilmiy merosi sobiq sho'ro tuzumi davrida asossiz ravishda unutilgan va deyarli o'rganilmagan. Holbuki, mazkur mutafakkirlar o'z davrida xalqimizning siyosiy va huquqiy tafakkurini boyitishga beqiyos hissa qo'shganlar. "XX asr boshidagi ma'rifatchilik harakati haqida gapirgandim, - degan edi I.A.Karimov. – O'sha harakatning namoyondalari boylik uchun, shon-shuhurat uchun maydonga chiqishdimi? Mahmudxo'ja Behbudiylari, Munavvar qori, Fitrat, Tavallolarga maktab ochganlari, xalqni o'z haq-huquqlarini tanishga da'vat etganlari uchun birov maosh to'laganmi? Birov ularga oylik bergenmi? Albatta, yo'q! Ular o't bilan o'ynashayotganini, istibdodga



qarshi kurashayotganliklari uchun ayovsiz jazolanishlarini oldindan yaxshi bilishgan. Bilaturib ongli ravishda mana shu yo'ldan borganlar. Chunki, vijdonlari, iymonlari shunga da'vat etgan".

Sizlarga vasiyat qilaman. Maorif yo'linda ishlayturg'on muallimlarning boshini silangizlar. Maorifg'a yordam etingiz. O'tadan nifoqni ko'taringiz. Turkiston bolalarini ilmsiz qo'y mangizlar. Har ish qilsangiz jamoat bilan qilingizlar. Hammaga ozodlik yo'lini ko'rsatingizlar. Buxoro tuprog'iga tezlik ila yo'l boshlangizlar. Ozodlikni tezlik ila yuzaga chiqaringizlar. Bu Mahmudxo'ja Behbudiyning so'nggi vasiyati, bo'g'zida qotgan dil afg'oni edi. Maxmudxo'ja Behbudiylar 1875 yilning 19yanvarida (xijriy 1291, 10-zulxujja) Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida dunyoga kelgan.Otasi Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li Turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomondan bobosi Niyozxo'ja urganchlik bo'lib, amir Shohmurod zamonida (1785-1880) Samarqandga kelib qolgan. 1894 yilda otasi, imom-xatiblik bilan shug,,illanib kelgan Behbudxo'ja vafot etadi. Yosh Maxmudxo'ja tog'asi qozi Muhammad Siddiqning tarbiyasi va qaramog'ida o'sib voyaga yetadi.Arab sarfu naxvini kichik tog'asi Odildan o'rganadi. 18 yoshidan qozixonada mirzolik qila boshladi. Darvoqe, Behbudiyning maktab-madrasa hayoti haqida ham ma'lumotlar nihoyatda kam. Uning zamondoshlari bilan bo'lgan suhbatlaridan ayon bo,,ladiki, Behbudiylar dastlab Samarqand madrasasida, so,,ngroq Buxoroda tahsil ko'rgan. An'anaviy madrasa ta'limini puxta egallagan Behbudiylar 1915 yilda ethnograf T.Andryev savollariga javob berar ekan, madrasa taxsilini alohida tilga olgani ma'lum. Xullas, an'anaviy taxsil, so'ng esa o'z ustida qunt va sabot bilan ishlash orqali u shariatning yuksak maqomlari-qozi, mufti darajasigacha ko'tariladi. Taxmin qilish mumkinki, yosh Maxmudxo'ja dunyoqarashning shakllanishida jadidchilik harakatining asoschisi Ismoilbek Gaspiralining xizmati katta bo,,igan. Sharqu-g'arbning tarix va madaniyatini chuqr bilgan, arab, fors tillari bilan bir qatorda ingliz, nemis, fransuz tillarida ham erkin so'zlasha olgan bu kishi 1881 yilda 145 rus tilida "Russiya musulmonligi" kitobini yozadi. Bu kitobda u, Rossiyada yashovchi barcha musulmonlarning o'zligini saqlab qolishining yo'li bitta, u ham bo'lsa, ma'rifat va u orqali mamlakatning ijtimoiy, siyosiy, madaniy xayotiga tengma teng aralashishga erishmoqdir, degan fikrni ilgari suradi. Bu yo'ldagi birinchi qadam "Usuli jadid", "Usuli savtiya" nomlari bilan tarix kirgan yangi maktablarni tashkil qilish bo'ldi."Al-on Rusiyadagi minglar ila nizomlik maktablar va sobiq nashr bo,,igan va hozir fa'l'an nashr bo'lub turg'on yuzlar ila islomiy majalla va jaridalarning barcha muharrir va



murdilari ul zoti sutuda sifatni shogirdlaridurlar"- deb yozgan edi Behbudiy 1914-yilda. 1884 yilda Ismoilbekning mashhur "Tarjimon" gazetasiga obuna bo,,gan 1000 kishining 200 tasi Turkistondan edi. Ismoilbek 1892 yilda Turkistondagi maktablarni isloh qilish, "Usuli savtiya"ni taklifi bilan general-gubernator N.O.Rozenbaxga murojaat etdi. Javob ololmagach, 1893 yil Toshkentga keladi, Samarqand, Buxoroda bo'ladi. Mahalliy xalq bilan gaplashib, dastlabki yangi usul maktablarini ochishga muvaffaq bo'ladi. So'ng 1897 yilda yana Turkistonga keladi. Barcha narsaga qiziquvchan Maxmudxo'janing Yaqin va O,,rtta Sharqda nomi tanilgan Ismoilbek Gaspiralining Turkiston safarlaridan behabar qolishi qiyin edi. To'g'ri, Ismoilbek kelib Turkistonda olib ketgan yangi maktablar uzoq davom etmadni, g'ayrishar'iy sifatida mutaassiblar tomonidan yopildi. Lekin "Tarjimon"ning mushtariylari ko'payib bordi. Ustoz-shogird munosabatlari samimiyo do'stlikka atlandi. Behbudiy o'z xotiralarida ustoz bilan uchrashuvlarini ixlos va muhabbat bilan tilga oladi. 1899-1900 yillarda Behbudiy buxorolik do'sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqadi. "1318 sanai hijriyasi tavofi Baymullog'a Kavkaz yo'li ila Istambul va Misr alQohira vositasi ila borib edim. Muddati safarim sakkiz oydan ziyoda cho'zilib edi", - yozadi Behbudiy bu haqda. Dunyo ko'rishi izsiz ketmaydi.Safar yangi maktab haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi. Uning tashabbusi va g'ayrati bilan 1903 yilda Samarqand atrofidagi Halvoysi (S.Siddiqiy), Rajabamin (A.Shukuriy) qishloqlarida yangi maktablar tashkil topdi. Adib ushbu maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Ketma-ket uning "Risolai asbobi savat" (1904), "Risolai jug'rofiyai umromiy"(1905), "Risolai jug,,rofiyai Rusiy"(1905), "Kitobat ul-aftol"(1908), "Amaliyoti islom"(1908), "Tarixi Islom"(1909) kabi kitoblari paydo bo,,ladi. 1903 yilda Halvoiyda qurilgan maktab binosi hozir ham saqlanib kelmoqda. Shukuriy maktabini esa Behbudiy 1908-yilda Samarqandga o'z hovlisiga ko'chirib olib borgani ma'lum. Toshkentda, Farg'ona vodiysida yangi maktablar tashkil topa boshlaydi. Ibrat, Munavvarqori, Avloniy, So'fizoda nomlari tilga tushadi. Bular hali 146 kifoya emas, millat bolalarini taraqqiy topgan shaharlarga o'qishga yuborish kerak. Mirmuhsin Shermuhammedov va bir qator o'zbeklar markaziy Rusiyaga-Ufadagi "Oliya"madrasasiga yo'l oladilar. "Oliya"da o'ndan ortiq o'zbek o'qiydi. XX asrning 10-yillarda Varshavada, Olmoniyada, Moskva, Peterburgda o'zbeklar o'qigani ma'lum. Maxmudxo,,ja 1903-1904 yillarda Moskva, Peterburgga boradi, 1906 yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodda 1906-yilning 23-avgustida Rossiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag'ishlangan qurultoy chaqiriladi.



Behbudiy bu qurultoyda turkistonliklar guruhini boshqaradi va nutq so,,zlaydi. 25 kunga cho'zilgan bu safar haqida Behbudiy so'ngroq shunday ma'lumot bergen edi: "1325 sanai hijriyasinda Rusiya musulmonlarining muhtaram ziyoli va akobirlarining Nijni Yorminkasinda milliy ishlar to'g'risinda mashvarat qila turg'on majlisg'a musharraf b'lmoq uchun O'rburg yo'lli ila Maskuf, Peterburg, Qozon vositasi-la Nijni Novago'rid borib edim". Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919 yillar) hayoti va faoliyati o'nlab tadqiqotga asos bo'ldi. Turkiston xalqlarining birinchi muftisi, jadidchilik harakati va ma'rifatparvarlik g'oyalari targ'ibotining taniqli namoyondasi, taraqqiyparvarlik harakatida oldingi safda turgan Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va madaniy merosini tahlil qilgan ziylilardan Naim Karimov, Dilorom Alimova, Begali Qosimov, Halim Sayid, Ibrohim G'ofurov kabilar birlamchi manbalarga asoslangan maqola va tadqiqotlarini xalqimiz va ilmiy jamoatchilik hukmiga havola qildilar.

Behbudiyning ijobiy ishlaridan biri „Behbudiya“ kutubxonasining tashkil etilishi bo'ldi. Behbudiy birinchilardan bo'lib Samarqandda kutubxona faoliyatini yo'lga qo'ygan. 1908-yil 11-sentabrda Samarqand hokimining rasmiy ruxsati bilan ushbu kutubxona „Yangi rasta“da ochilgan. Biroq kutubxonaning ochilishi haqidagi xabar biroz avval chop etilgan. Bu haqda „Turkiston viloyatining gazeti“da xabar berilgan. 27 bobdan iborat bo'lgan dastur kutubxonaning barcha rasmiy masalalarini belgilab bergen. Kutubxonaga yillik a'zolik badali 3 so'mni tashkil etgan. Kutubxonaning asosiy maqsadi mahalliy musulmon yoshlari va madrasa talabalarini zamonaviy ilmlar bilan shug'ullanishga undash bo'lgan. Kutubxona faoliyatida Mahmudxo'ja Behbudiya jadid ma'rifatparvarlari Hoji Muin, Vasliy Samarcandiyy va pedagog Abduqodir Shakuriylar yordam berib borgan. Ayni paytda kutubxona tuzilish jihatdan xilma-xil va boy fondga ega bo'lgan. Chet el davlatlarda nashrdan chiqqan dunyoviy va diniy kitoblar, suratli jurnallar hamda gazetalar, ensiklopediya, lug'atlar, xarita va atlaslardan o'qib foydalanish mumkin bo'lgan. Kutubxonadagi kitoblar fondi dastlab 200, keyinroq 225 jildga yetgan. Kutubxona kunlik 14 soat davomida faoliyat olib borgan. Ochilishidan 7 oy o'tib, a'zolari soni 125 kishiga yetgan. 1910-yillarga kelganda faoliyati susaya boshlagan. Bunga avvalo o'lkadagi jadidlar va qadimchilar qaram-qarshiligi sabab bo'lgan. Mullalar ota-onalar bilan suhbatlashib, kofirxona sifatida u yerga borishni taqiqlab qo'yishgan. 1912-yilda sanoqli kishi kutubxonadan foydalangan. 1914-yilga kelib moliyaviy qiyinchiliklar boshlanadi. 15 a'zodan iborat yillik yig'ilish paytida kutubxonani saqlab qolish va iqtisodiy



muammoni hal etish maqsadida spektakl qo'yishga kelishib olinadi. Teatr tomoshalari ham qadimchilar tomonidan rad etilgach, Kutubxona faoliyati tugaydi. Behbudiy kutubxonani o'zining uyiga ko'chiradi va uni Behbudiya kutubxonasi deb nomlaydi. Keyinchalik u yerda chet elda nashr qilingan kitoblarni sotishni ham yo'lga qo'yadi va ularning ro'yxati Oyna jurnalida e'lon qilib boriladi. Mahmudxo'ja Behbudiy qatl etilganidan so'ng kutubxona taqdiri bilan qiziquvchi hech kim topilmagan. „Turkiston“ gazetasida keltirilgan „Samarqanda Behbudiy kutubxonasi“ maqolasida keltirilishicha, kutubxonadan mas'ul ishchilar ham xabar olmay qo'yan va 1500 dan ortiq (659 dona musulmoncha, 923 dona ruscha) kitoblar ahvoli noma'lumligicha qolgan. Kutubxona Mahmudxo'ja Behbudiy o'ylaganidek keng ravnaq topmagan bo'lsaada, ziyolilar va ilm ahliga foydasi behad ulkan bo'ldi. Hatto ma'rifatparvar zotning keyingi faoliyati – "Oyna", "Samarqand" nashrlari uchun asos manbalardan bo'lib xizmat qildi deyish mumkin. "Padarkush" drammasining ham ilk bor sahna yuzini ko'rishi bevosita ushbu ma'rifat maskani turkisi bilan bog'liq. Xullas eskicha fikrlovchi kimsalar qutqisi, ilmsiz xalqning ishtiyoqsizligi oqibatida taraqqiyarvar loyihalardan yana biri muvaffaqiyatsizlikka uchragan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Jamolova D.M. Buxoro amirligida jadidlar va qadimchilar faoliyati (XIX asr oxiri – XX asr boshlari ): Tarix fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.-Toshkent-2019.-54 bet.
2. Shodiyev J.M. Buxoro amirligining tashkil topishi va davlat tuzumi. Yuridik fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtorefarat Toshkent-2008. 25 bet.
3. Sayyid Mansur Olimiy. Buxoro - Turkiston beshigi. (fors tilidan tarjima, tarjimon nomidan so'zboshi va ayrim izohlar muallifi H.To., rayev) Buxoro - 2004.-128 bet.
4. Shodmonovich A. O. Education in the emirate of bukhara (based on the life and work of the rulers) //Academicia: an international multidisciplinary research journal. – 2020. – T. 10. – №. 12. – C. 1224-1227.
5. Ahmadov.O.Sh "Mahmudxo'ja Behbudiy - Turkiston jadidchilik harakati yo'lboschchisi" maqolasi